


## VII. ISTE'MOL BOZORI

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 16 320,5 mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 619,7 mld. so'mni (o'sish sur'ati 91,7 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 016,8 mld. so'mni (12,1 foiz o'sish kuzatildi), savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tovar aylanmasi 10 683,9 mld. so'mni (10,1 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda  
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)**




2021- yilning yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 16 304,2 mln. so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,9 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shahri 29,4 %, Chiroqchi 9,9 %, Koson 8,7 %, Shahrisabz shahri 7,9 %, Qamashi 6,8 % va Kitob 5,4 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Dehqonobod tumani 3,4 %, Mirishkor tumani 3,3 %, Shahrisabz tumani 3,2 % va Muborak tumani 2,6 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Qashqadaryo viloyatida tuman va shaharlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**






Jumladan, 2021- yilning yanvar- dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi



tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 347,9 mldr. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % o‘sish kuzatildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,9 % ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Tumanlarning umumiyligi ovqatlanishdagi  
ulushi, foizda**



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4 840,1 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahrida (17 088,3 ming so'mni), Shahrisabz shahrida (9 050,6 ming so'mni), Koson tumani (4 833,9 ming so'mni), Muborak tumanida (4 807,6 ming so'mni) kuzatildi.


**Chakana tovar aylanmasi umumiy (umumi ovqatlanishni qo'shgan holda)**  
**(2021- yil yanvar-dekabr)**

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan, % hisobida</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan, % hisobida</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>16320,5</b>	<b>108,5</b>	<b>4840,1</b>	<b>106,4</b>
G'uzor	550,7	105,7	2622,5	103,5
Dehqonobod	550,1	90,3	3630,9	88,4
Qamashi	1102,4	90,5	3971,3	88,9
Qarshi	616,7	91,7	2409,1	89,5
Koson	1421,7	117,8	4833,9	115,2
Kitob	879,7	102,6	3272,8	101,2
Mirishkor	534,4	92,2	4351,4	90,4
Muborak	429,3	101,0	4807,6	98,8
Nishon	606,2	100,1	3851,4	97,9
Kasbi	606,9	102,8	3005,9	100,7
Chiroqchi	1621,7	116,9	3807,6	114,0
Shahrisabz	520,3	108,6	2305,2	107,3
Yakkabog'	802,1	102,7	2986,4	101,2
Qarshi sh.	4796,7	113,5	17088,3	111,8
Shahrisabz sh.	1281,6	145,3	9050,6	143,4

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 662,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga nisbatan 6,7 % ga o'sish kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar- dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 3001,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,5 %ga o'sdi. Ushbu sektoring umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 81,9 %ni tashkil qilmoqda.

### **Qashqadaryo viloyatida hududlarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**



Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 7,6 % ga kamayib 661,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 18,1 % ni tashkil qildi.

## **Ulgurji savdo tovar aylanmasi**

*(2021- yil yanvar-dekabr)*

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan, % hisobida</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3662,8</b>	<b>106,7</b>
G‘uzor	103,9	176,2
Dehqonobod	50,9	34,6
Qamashi	9,0	14,3
Qarshi	267,8	123,7
Koson	149,1	76,4
Kitob	138,3	88,8
Mirishkor	33,5	20,2
Muborak	77,3	88,3
Nishon	26,1	32,1
Kasbi	137,1	2,4 m.
Chiroqchi	87,6	104,6
Shahrisabz	96,0	168,2
Yakkabog‘	99,1	94,7
Qarshi sh.	2125,6	130,4
Shahrisabz sh.	261,6	79,7